

KIYIM RANGLARINING O'RGANISH VA ILMIY TAHLIL QILISH

*Sh.U.Turaboyev**Namangan viloyat 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi**H.D.Dehqonova**Namangan muhandislik – texnologiya instituti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson xayotida muxim ro'l o'ynaydigan libos ranglarining inson psixologiyasiga ko'rsatadigan ta'siri yoritib berilgan va Kostyum dizaynida rang tanlash va yengil sanoat uchun bir qator eskiz modellari taqdim etilgan.

Abstract. The influence of costume colors to people's psychology. This article presents the effect of dress colors which is play an important role to the human psychology and proposed a number of sketch models to the light industry.

Аннотация. Влияние цветов одежды человеческую психологию. В данной статье представлена, человеческая форма жизни которое играть важную роль в освещении человеческой психики, и представляет ряда эскизов моделей для эффект легкой и текстильной промышленности.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida Prezidentimizning bir qator farmonlariga ko'ra monopoliyadan chiqarish, raqobatbardosh mahsulotlar sonini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bozorda o'z o'rniga, o'z haridoriga ega bo'lgan yengil sanoat mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqish maqsadida korxonalariga shunday takliflar tavsiya etilishi kerakki, bu mahsulotlar insonning ham ruhiy, ham aqliy, ham ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir etilishi ko'zda tutilishi lozim.

Azal-azaldan rang hayot va mamot ramzi, quvonch va hafalik, ma'lum ijtimoiy belgi sanalgan. Rang buyumning eng muhim information sifatlaridan biri hisoblanadi. Bizni o'rab turgan tashqi muhit, tabiada rangsiz mavjudot, o'simlik va buyum yo'q. Odam yaratgan hamma asarlarda rangsiz buyumlar uchramaydi. Ranglar psixo-fiziologik xossalaridan yana biri rang tovushining odamga sezilishidir. Ko'pincha rangga bo'lgan munosabat, musiqa bo'lgan munosabatga o'xshaydi. Rang ham xuddi musiqa singari odam kayfiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyatlarda harxil ranglar jilosi, ularning mosligi, ramzlari, rang turlari va o'zaro bog'liqligini kuzatamiz. Masalan, ranglar fizik xossalarining ta'siri ko'rkamlilik va salobatlilik taassurotini beradi. Ko'plab tadqiqot o'tkazgan olimlarning asarlarida rang bu qandaydir kuch deb atalganligini, odamning ruhiyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkinligi xususida fikrlar bor.

Rang odamlarda turli his-tuyg'ularni uyg'otadi: qattiq iztirob, ohistalik, befarqlik, sovg'otish, iliqlik va hokazo. Bunday holatlarda odamning ruhiy va jismoniy holati kuzatiladi. Yashil bu – yozning asosiy rangi, bunda tabiat ham dam oladi. Bu sokinlikning muvozanati ko'kka qarab intilishi tufayli buziladi. Sariqqa talpinganida hammasi yosharadi, quvnoqlashadi, ko'kka intilganida hammasi jiddiy tus oladi. [1]

Tajribaning ko'rsatishicha, sariq rang insonda iliq taassurot qoldiradi. Biror tomonga sariq oyna ortidan qaralsa, ko'z ravshanlashadi, yurak kengayadi, ko'ngil quvnoqlashadi, huddi bizga iliq shabboda esayotgandek tuyiladi. Sariq rang o'zi bilan yorug'lik – nur olib kelsa, ko'k rang esa biror qoramtir, to'qlik olib keladi.

№	Rang	Ko'rish	Fiziologik	Tasavvur	Psixologik
1	Qizil	Aniq, ravshan, yorqin	Issiq, hayajon	Isyon, yong'in, shovqin	Qaynoq, ehtiros, g'azab
2	Olovrang qizg'ish	Ravshan, ajrab turadigan	Kayfiyat buzilishi, hayajon	Quyosh, tantana	Qo'pollik, kuch-quvvat
3	Olovrang	Ravshan, ajralib turuvchi	ziddiyat	Quyosh botishi	Notinchlik, keskinlik
4	Sarg'ish olovrang	Yaltiroq, ajralib turmoq	Qiziqish	Quyosh chiqishi, oltin	Baxt, hayot, hosildorlik
5	Sariq	Yaltiroq	Betoblik	Nur, limon	Quvnoqlik, xursandlik
6	Sarg'ish yashil	Yaltiroq	Osoyishtalik	Bahor, yosh novdalar	Umid, zaiflik
7	Ko'k	hayoliy	Salqin	Uzoqlik	Tinchlik, osoyishtalik
8	Siyohrang	Zich havo, oqshom	Iliqhavo	Binafsha	Tantana, motam
9	Qirmizi	Shirali	Ehtiros	Saltanat	Dinamik, dabdabalik
10	Yashil	Noturg'un, neytral	Osoyishta, soflik	O'simlik, dengiz	Tinchlik, turg'unlik

Liboslarning rangi va rang birikmalari tenglanganda odamning jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psixologik turi va kiyim nimaga mo'ljallanganligi e'tiborga olinishi lozim. Ayollar libosi erkaklar libosiga nisbatan yorqin rangda bo'ladi. Yosh bolalar kiyimi och rangli, o'rta yoshlilarniki yorqin sof rangli, katta yoshlilarniki esa to'q rangli bo'lishi tavsiya etiladi. O'spirinlarning liboslari rang-barang qilib tanlanadi.[2]

Odamning gavda tuzilishiga binoan rang tanlanganda ranglarning fizik va psixo-fiziologik xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Masalan, qora va "sovuq" xromatik ranglar inson figurasini kichikroq qilib ko'rsatadi, oq va "iliq" ranglar esa kattalashtirib ko'rsatadi. Ranglarni tanlashda odamlarning psixo-fiziologik turi xolerik, sangvinik, melanxolikni ham e'tiborga olish lozim. Ularning tashqi ko'rinishi birxil bo'lsaxam, libos rangi harxil bo'ladi. Melanxoliklar liboslariga odmi va sipo ranglarni, xoleriklar esa yorqin ranglarni tanlashadi.

Liboslarning rangi kiyim nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq. Masalan, kundalik liboslar rangi odmi, sipo bo'lish ilozim, bashang va faol dam olish liboslarining ranglari yorqin bo'lishi lozim.

Quyida bir qator eskiz loyihalaridan namunalar keltirilgan. Ulardan: 1-model eskizida kundalik libos keltirilgan bo'lib unda Ko'k-yashil, siyohrang va sariq ranglardan foydalanilgan. Libosni asosiy qismini ko'k-yashil rang tashkil etadi. Yashil rang – o'simliklarning rangi bo'lib, u odamni tinchlantiradi va qon bosimini

pasaytiradi. Qadimgi sharqda yashil rangga, o'simlik yoki zumrad toshga uzoq tikilib turish charchagan ko'zning dam olishiga yordam beradi, deb hisoblangan. Yashil rang inson ruhiyatidagi kun davomida osoyishtalikni taminlab beradi. Ko'k-yashil ranglar sovuq tuyiladi, chunki ular suvni eslatadi. Bunday ranglar buyumni uzoqlashtirib va kichraytirib ko'rsatadi, demak, gavnani ham kichraytirib ko'rsatadi. Libosning bir qismini hamda libos qo'shimchalarini ko'k rang tashkil etgan. [3]



1-model eskizi



2-model eskizi.

Sport uslubidagi erkaklar libosi tanlab olindi, hamda ustki kiyim, futbolka va yengsiz ustki kiyim to'plam sifatida tashkil topgan. Kiyim uchun eng issiq ranglardan biri siyohrangdan foydalanilgan. Siyohrang-o'pka va yurak faoliyatini yaxshilab, unga yordam beradi. Siyohrang inson qomatini kichraytirib ko'rsatadi, demak, buni biroz inkor etish uchun ustki kiyimda issiq ranglardan biri bo'lgan olovrangdan foydalanilgan. Ipakdagi tilla va olovrang odamni ruhlantiradi va iliqlik, quvnoqlikni baxsh etadi, aqliy mehnat samarasini oshiradi. Bu ikki rangni libosda qo'llaganimizda ular bir-birini to'ldirib turadi. Libosdagi uyg'unlikni ta'minlab berish maqsadida libos qo'shimchalarida ham siyohrangdan foydalanilgan.



3-model eskizida

3-model eskizida Sport uslubi hisoblanib, bu liboslar to'plam ko'rinishida ishlab chiqilgan. Libosda ikki xil rang qo'llanilgan. Undagi qizil rang doimo qattiq ehtiros, qahramonlik, g'alaba va adolatni aks ettiradi. Qizil rangni qadimgi xalqlarda shoh va imperatorlar kiyishgan. Qizil-yorqin rang bo'lib, inson qomatini kattalashtirib ko'rsatadi, shuning uchun u qora rang bilan uyg'unlashtirilgan. Qora esa uning aksi bo'lib inson qomatini uzoqlashtirib yani kichiklashtirib ko'rsatadi. Libos qo'shimchalarida ham libosdagi uyg'unlikni ta'minlab berish uchun qora hamda qizil ranglardan foydalanilgan.

Libos ranglari aholining ijtimoiy faoliyati samaradorligini oshirishda, ruhiy barqarorligini ta'minlashda, optimistlikka moyillikda muhim rol o'ynaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan birqator ma'lumot va tavsiyalar kiyimlarni loyihalashda uning ranglar uyg'unligini barqarorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. G. K. Hasanboyeva M. Sh. Shomansurova "Maxsus kompozitsiya" T. 2007
2. F. U. Nigmatov, N.N. Nabijonova, I. A. Isayeva "Rasm va kostyum grafikasi"
3. S. Yoldosheva , S. Davlatova "Folklor kiyimlari va bezaklari". T. 2007
4. D.N.Raxmatullayeva, "Kostyum va moda tarixi" T. 2017